



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
BUYRUQ

2023-yil “25” aprel

Nukus shahar.

9 -sonli

**Urug‘lik don olish uchun ekilgan g‘alla maydonlarida dala
aprobatsiya ko‘rigini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PQ-106 - son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 20-apreldagi 75-sonli buyrug‘i bilan urug‘lik don yetishtirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish hamda 2024-yil hosili uchun boshqoli don ekinlari maydonlarini, istiqbolli va ekishga tavsiya etilgan navlarning navdorligini davlat standartlari talablariga javob beradigan navli urug‘lari bilan ta‘minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 20-apreldagi 75-sonli buyrug‘i ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Qishloq xo‘jaligi vazirligi (Nurmuhammadov), Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi (Abillaev), «O‘zagroinspeksiya»ning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (Ismaylov), «Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (Sabirov), G‘allachilik, dukkakli don va moyli ekinlar bo‘limi (Nurniyazov), tuman Qishloq xo‘jaligi, «Agroinspeksiya»ning bo‘limlari rahbarlariga:

boshqoli don ekinlari urug‘larini yetishtiruvchi ilmiy muassasalar, elita urug‘chilik xo‘jaliklari, g‘allachilik klasterlari, kooperatsiyalar va fermer xo‘jaliklarining urug‘lik g‘alla maydonlarini dala aprobatsiyasi ko‘rigidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 641-son qarori bilan tasdiqlangan “Urug‘lik uchun ekilgan maydonlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarini aprobatsiya qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizom talablari asosida amalga oshirilishini ta‘minlasin.

Bunda, urug‘lik don tayyorlash uchun ko‘paytirish ko‘chatzorlari, original (superelita), elita va keyingi avlodli urug‘lik maydonlarida aprobatsiya o‘tkazishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-106 - sonli qarorida belgilangan miqdorlari inobatga olish;

har bir tuman kesimida aprobatorlik kurslarini bitirgan bilimli va tajribali mutaxassislarni tanlab, boshqoli don ekinlarini urug'chiligi bo'yicha aprobatorlikka tayinlash choralarini ko'rsin.

3. Quyidagilar:

2023-yil hosilidan urug'lik olish uchun ekilgan boshqoli don ekinlari maydonlarini dala aprobatsiya ko'rigidan o'tkazishni tashkil etishga birlashtirilgan mas'ullar ro'yhati **1-ilovaga** muvofiq;

urug'lik don olish uchun ekilgan g'alla maydonlarida dala aprobatsiya ko'rigini o'tkazish bo'yicha vazirlikning Respublika ishchi guruh tarkibi **2-ilovaga** muvofiq;

Ilmiy muassasalarda 2023-yil hosilidan Davlat reestriga kiritilgan, istiqbolli va yangi boshqoli don ekinlari navlarining yuqori avlodli urug'liklarini yetishtirish hajmlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Aprobatsiyani tashkil etish uchun birlashtirilgan mas'ullarga:

urug'lik g'alla maydonlarini boshqolash davriga qadar **ikki marta to'liq** dala kuzatuv ishlarini o'tkazish hamda uslubiy va agrotexnik tadbirlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha urug'lik yetishtiruvchi xo'jaliklari rahbarlarini ogohlantirish;

dala kuzatuvlarida aprobatsiyani tashkil etishga birlashtirilgan mas'ullarning ogohlantirishlariga qaramasdan urug'chilik talablari bajarilmasdan qolganda, belgilangan tartibda urug'lik hisobidan chiqarish bo'yicha hujjatlarini rasmiylashtirish;

joriy yil 5 maydan agronom – aprobatorlar tomonidan urug'lik maydonlarida dala aprobatsiya ko'rigini o'tkazishga tayyorlash, shuningdek hujjatlar (dalolatnomalar, aprobatsiya bo'yicha yo'riqnomalar hisobotlar)ni rasmiylashtirish bo'yicha o'quv seminarlarini tashkil qilish choralarini ko'rish;

tanlovdan o'tgan xo'jaliklarda aprobatsiya ko'rigini o'tkazish hamda urug'lik yetishtiruvchi subyektlar bo'yicha boshqoli don ekinlari ekilgan maydoni, navi, avlodi va aprobatsiya o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan holda aprobatsiya o'tkazish rejasini ishlab chiqish;

barcha urug'lik yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini zarur miqdorda aprobatsiya o'tkazish hujjatlari (blanka) namunalari bilan ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Bosh aprobatorlar tomonidan:

uch kun muddatda Urug'chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi tuman Qishloq xo'jaligi «Agroinspeksiya»ning bo'limlari ilmiy muassasalar, urug'lik don qabul qilish va qayta ishlash korxonalarining sohaga tegishli mutaxassislardan iborat aprobatsiya o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlarini shakllantirish;

boshqoli don ekinlarining barcha urug'lik maydonlarida qiyin ajraladigan madaniy va begona o'simliklar, shu jumladan, taqiqlangan va zaharli o'simliklardan tozalash, zaruriy hollarda esa o'toq qilishni, navi va turiga qarab o'tkazishni ta'minlansin.

6. Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi (Abillaev), «O'zagroinspeksiya»ning Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (Ismaylov), «Urug'chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (Sabirov), G'allachilik, dukkakli don va moyli ekinlar bo'limi (Nurniyazov)

tuman Qishloq xo'jaligi, «Agroinspeksiya»ning bo'limlari hamda Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi rahbarlariga:

joriy yilning 10 mayiga qadar tumanlarda boshqoli don ekinlarining urug'larini yetishtiruvchi "Urug'chilikni rivojlantirish markazi" tizimidagi elita urug'chilik xo'jaliklari, ilmiy muassasalari, g'allachilik klasterlari, kooperatsiyalar va fermer xo'jaliklari urug'lik maydonlarida dala aprobatsiya tadbirlarini o'tkazishdagi barcha talablarni yetkazish;

boshqoli don ekinlari aprobatsiyasi va duragaylash maydonlarida dala monitoring ishlarini olib borish va o'tkazishda uslubiy rahbarlik qilish;

aprobatsiya dalolatnomalarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish va tashkil etilgan aprobatsiya o'tkazish bo'yicha hududiy ishchi guruhlari a'zolarining to'liq ishtirok etishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

7. «O'zagroinspeksiya»ning Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi, «Urug'chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi boshliqlari:

uch kun muddatda urug'lik g'alla maydonlarida aprobatsiya ko'rigini o'tkazish bo'yicha respublikaning ko'rgazmali o'quv-seminarni tashkil etishga hamda seminar dastur loyihasini tayyorlashga;

joriy yilning 1 iyuniga qadar aprobatsiya o'tkazish bo'yicha hududiy ishchi guruhlari tomonidan boshqoli don urug'ligi ekilgan maydonlarda o'tkazilgan aprobatsiya natijalarini ilmiy muassasalar hamda elita urug'chilik xo'jaliklari, g'allachilik klasterlari, kooperatsiyalar va fermer xo'jaliklari kesimida tasdiqlangan hujjatlarni vazirlikning G'allachilik, dukkakli don ekinlari va moyli ekinlar bo'limiga taqdim qilishga;

2023-yil hosili uchun Rossiya Federatsiyasidan xarid qilingan urug'lik bug'doy navlari maydonlarida dala aprobatsiya ko'riklarini o'tkazishga shaxsan mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilsin.


8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari F.Nurmuhammadov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Z.Ziyadullaev

KIRITILDI:


G'allachilik, dukkakli don va ekinlar
ekinlari bo'limi boshlig'i



K.Nurniyazov


KELISHILDI:

Vazirning birinchi o'rinbosari



F.Nurmuhammadov

Vazir o'rinbosari




Q.Bekbergenov

Mexanizatsiyalash va texnik
modernizatsiyalash bo'yicha bosh mutaxassis



Q.Ubeydullaev

Bosh yuriskonsult



K.Otepov



Qoraqalpog'iston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vazirligining
2023 yil "25" aprel dagi
9 sonli buyrug'iga
1-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlarida urug'lik g'alla maydonlarida dala
aprobatsiyasini o'tkazishda bosh aprobatorlar, bosh aprobator yordamchilari**

hamda olim aprobatorlar

RO'YHATI

F.I.Sh	Lavozim
To'rtko'l tumani	
B.Kadirov	Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i, bosh aprobator
Q.Murtazaev	«Urug'chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi mutaxassisi, bosh aprobator yordamchisi
A.Yuldashev	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining mutaxassisi, olim aprobator
U.Yeshimbetov	“O'zagroinspeksiya”ning To'rtko'l tuman bo'limi xodimi, nazoratchi aprobator
G'.Jumaniyazov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko'rsatish markazi” DUK Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali xodimi
Beruniy tumani	
R. Abdiraimov.	Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i, bosh aprobator
Q.Murtazaev	«Urug'chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi mutaxassisi, bosh aprobator yordamchisi
A.Yuldashev	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining mutaxassisi, olim aprobator
R.Atadjanov	“O'zagroinspeksiya”ning Beruniy tuman bo'limi xodimi, nazoratchi aprobator
I.Radjapov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko'rsatish markazi” DUK Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali xodimi
Elliqal'a tumani	
A.Muminov	Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i, bosh aprobator
Q.Murtazaev	«Urug'chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi mutaxassisi, bosh aprobator yordamchisi
A.Yuldashev	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining mutaxassisi, olim aprobator
U.Quchqarov	“O'zagroinspeksiya”ning Elliqal'a tuman bo'limi xodimi, nazoratchi aprobator

F.I.Sh	Lavozim
E.Abdullaev	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi
Amudaryo tumani	
B.Qurbaniyazov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, bosh aprobat or
I.Cho‘tboev	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi mutaxassisi, bosh aprobat or yordamchisi
A.Yuldashev	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining mutaxassisi, olim aprobat or
D.Saburov	“O‘zagroinspeksiya”ning Amudaryo tuman bo‘limi xodimi, nazoratchi aprobat or
O.Qurbaniyazov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi
Taxiatosh tumani	
Q.Eshanov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, bosh aprobat or
Q.Qudaybergenova	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi mutaxassisi, bosh aprobat or yordamchisi
B.Xudaybergenov	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining mutaxassisi, olim aprobat or
K.Sharafov	“O‘zagroinspeksiya”ning Taxiatosh tuman bo‘limi xodimi, nazoratchi aprobat or
J.Yeshmuratov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi
Xo‘jayli tumani	
M.Xudaybergenov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, bosh aprobat or
Q.Qudaybergenova	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi mutaxassisi, bosh aprobat or yordamchisi
B.Xudaybergenov	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining mutaxassisi, olim aprobat or
S.Allamuratov	“O‘zagroinspeksiya”ning Xo‘jayli tuman bo‘limi xodimi, nazoratchi aprobat or
J.Eshmuratov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi
Sho‘manoy tumani	
N.Mirzabaev	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, bosh aprobat or
Q.Qudaybergenova	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, bosh aprobat or yordamchisi
B.Xudaybergenov	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining mutaxassisi, olim aprobat or

F.I.Sh	Lavozim
A.Qurbonboev	“O‘zagroinspeksiya”ning Shumanay tuman bo‘limi xodimi, nazoratchi aprobat
J.Eshmuratov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi
Qonliko‘l tumani	
U.Shamuratov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, bosh aprobat
Q.Qudaybergenova	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, bosh aprobat yordamchisi
B.Xudaybergenov	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining mutaxassisi, olim aprobat
B.Toreshov	“O‘zagroinspeksiya”ning Qonliko‘l tuman bo‘limi xodimi, nazoratchi aprobat
J.Eshmuratov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi
Qo‘ng‘irot tumani	
S.Radjabov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, bosh aprobat
Q.Qudaybergenova	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, bosh aprobat yordamchisi
B.Xudaybergenov	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining ilmiy hodimi, olim aprobat
A.Abdiraxanov	“O‘zagroinspeksiya”ning Qo‘ng‘irot tuman bo‘limi xodimi, nazoratchi aprobat
J.Eshmuratov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi
Nukus tumani	
R.Bekniyazov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, bosh aprobat
B.Nawbiev	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, bosh aprobat yordamchisi
D.Turdishev	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining ilmiy hodimi, olim aprobat
X.Nurmatov	“O‘zagroinspeksiya”ning Nukus tuman bo‘limi xodimi, nazoratchi aprobat
B.Allayarov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi
Kegeyli tumani	
R.Erejepov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, bosh aprobat
B. Nawbiev	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, bosh aprobat yordamchisi

F.I.Sh	Lavozim
D.Turdishev	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining ilmiy hodimi, olim aprobator
J.Artiqova	“O‘zagroinspeksiya”ning Kegeyli tuman bo‘limi xodimi, nazoratchi aprobator
B.Allayarov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi
Chimboy tumani	
U.Shimbergenov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i bosh aprobator
S.Sultamuratov	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi mutaxassisi, bosh aprobator yordamchisi
D.Turdishev	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining ilmiy hodimi, olim aprobator
F.Pirlenov	“O‘zagroinspeksiya”ning Chimboy tuman bo‘limi xodimi, nazoratchi aprobator
A.Rametullaev	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi
Qorao‘zak tumani	
A.Ikmetullaev	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, bosh aprobator
S.Sultamuratov	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi mutaxassisi, bosh aprobator yordamchisi
D.Turdishev	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining ilmiy hodimi, olim aprobator
M.Sag‘indikov	“O‘zagroinspeksiya”ning Qorao‘zak tuman bo‘limi xodimi, nazoratchi aprobator
A.Rametullaev	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi
Taxtako‘pir tumani	
O.Jaksimov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, bosh aprobator
S.Sultamuratov	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi mutaxassisi, bosh aprobator yordamchisi
D.Turdishev	Don va sholi ilmiy - ishlab chiqarish birlashmasining ilmiy hodimi, olim aprobator
T.Nisanov	“O‘zagroinspeksiya”ning Taxtako‘pir tuman bo‘limi xodimi, nazoratchi aprobator
A.Rametullaev	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali xodimi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Qishloq xo‘jaligi vazirligining
2023 yil “25” apreldagi
9 -sonli buyrug‘iga
2-ilova

**Urug‘lik don olish uchun ekilgan g‘alla maydonlarida dala aprotatsiya
ko‘rigini o‘tkazish bo‘yicha vazirlikning
Ishchi guruh tarkibi**

F. Nurmuhammadov	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Ishchi guruhi rahbari
<i>A‘zolari:</i>	
K. Nurniyazov	G‘allachilik, dukkakli don va moyli ekinlar bo‘limi boshlig‘i
Q. Ubeydullaev	Mexanizatsiyalash va texnik modernizatsiyalash bo‘yicha bosh mutaxassis
N. Amanov	G‘allachilik, dukkakli don va moyli ekinlar bo‘limi bosh mutaxassisi
B. Ismaylov	«O‘zagroinspeksiya»ning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i
I. Mamutov	“Agrosanoat majmuida xizmatlar ko‘rsatish markazi” DUK rahbari
B. Abillaev	Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi boshlig‘i
S. Sabirov	«Urug‘chilikni rivojlantirish markazi» DMning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi boshlig‘i

Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasida 2023-yil hosilidan davlat reestriga kiritilgan, istiqbolli va yangi boshoqli
don ekinlari navlarining yuqori avlodli urug'liklarini yetishtirish
H A J M L A R I

t/r	ekin turi	navlar nomi	A v l o d l a r (aprobatsiya o'tkazilgandan so'ng rasmiylashtiriladi)											
			II-yil ko'paytirish ko'chatzori					original (superelita)					elita	
			maydoni, ga	o'rtacha hosildorligi, ts/ga	jamg'ariladigan urug'lik don, tn	maydoni, ga	o'rtacha hosildorligi, ts/ga	jamg'ariladigan urug'lik don, tn	maydoni, ga	o'rtacha hosildorligi, ts/ga	jamg'ariladigan urug'lik don, tn	o'rtacha hosildorligi, ts/ga	maydoni, ga	o'rtacha hosildorligi, ts/ga
1	bug'doy	Vassa					9,3	29,9	27,8	39,6	30,0	118,8		
2	bug'doy	Vexa								83,1	30,0	249,2		
4	bug'doy	Alekseich				4,7	29,8	14,1						
5	bug'doy	O'tkir				5,0	29,8	15,0				91,3		
6	bug'doy	Qadr	0,6	29,5	1,8	9,4	30,0	28,3						
7	bug'doy	Gurt				8,3	30,0	24,9						
8	bug'doy	Antonina				9,3	30,0	27,8						
9	bug'doy	Shortanbay-1	0,25	30,0	0,75	2,4	30,0	7,2						
10	bug'doy	Besqala (sin)	0,25	30,0	0,75									
11	bug'doy	Karakalpak-100 (sin)	0,25	30,0	0,75									
12	bug'doy	Amangul	0,25	30,0	0,75									
		jami:	1,61	29,8	4,80	48,5	29,9	145,1	153,2	30,0	459,3			
1	tritikale	Sergey	0,01	30,0	0,03									
2	tritikale	Xlebarov	0,01	30,0	0,03									
		jami:	0,02	30,0	0,06									
		DShHChB bo'yicha jami:	1,63	29,8	4,86	48,5	29,9	145,1	153,2	30,0	459,3			

izoh: bosh aprobatorlar tomonidan urug'lik g'alla maydonlari holati va ularning birlamchi hujjatlari to'liq o'rganib chiqiladi hamda belgilangan tartibda aprobatsiya hujjatlari rasmiylashtiriladi.

(tal) - lami hududlarda ekinlangan navlar, (sin) - sinovi yakunlanmagan navlar, (top) - sinov uchun topshirilmagan navlar.

bunda, sinovi yakunlanmagan va sinov uchun topshirilmagan navlar hisobidan jamg'arilgan urug'liklar sotishga ruhsat berilmaydi.

ilmiy muassasalarda yetishtirilgan II-yil ko'paytirish ko'chatzori urug'liklarini Qishloq xo'jaligi vazirligining taqsimotiga asosan hududlarga tarqatiladi.

mazkur ilovaga asosan bug'doy navlarining II-yil ko'paytirish ko'chatzori urug'liklarini belgilangan hajmlardan ortiqcha jamg'arilishiga ruhsat etilmaydi.